



O'ZBEK BOLALAR SHE'RIYATINING YANGILANISH JARAYONI VA OMILLARI

Normurodova Nigora Abdusattorovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika Universiteti
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Sadarova Nilufar Kozim qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika Universiteti
"Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 1 -bosqich magistranti
Sadarovanilufar8@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek bolalar she'riyatining tarixiy rivojlanish bosqichlari, mazmuniy va badiiy yangilanish jarayoni hamda bu jarayonga ta'sir etgan omillar tahlil qilinadi. Bolalar she'riyatining jadidchilik davridan boshlab mustaqillik yillariga qadar o'tkazgan o'zgarishlari izchil yoritilib, Avloniy, Hamza, G'afur G'ulom, Xurshid Davron, Halima Xudoyberdiyeva va Abdulla Oripov kabi shoirlar ijodidan misollar orqali mazmuniy yangiliklar ochib berilgan. Maqolada bolalar ruhiyatiga mos badiiy ifoda, milliy qadriyatlar, ekologik tarbiya, dialog va interaktiv shakldagi janrlar bolalar she'riyatining zamonaviy yo'nalishlari sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Interaktiv janr, jadidchilik davri, milliy qadriyatlar, yosh avlod tarbiyasi, motivatsiya, globallashuv, obrazli, badiiy ifoda, estetik tajriba.

ПРОЦЕСС И ФАКТОРЫ ОБНОВЛЕНИЯ ДЕТСКОЙ ПОЭЗИИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: В статье анализируются исторические этапы развития узбекской детской поэзии, процесс её содержательного и художественного обновления, факторы, повлиявшие на этот процесс. Последовательно освещаются изменения, которые претерпела детская поэзия с периода джадидов до годов независимости, раскрываются существенные новации на примере творчества таких поэтов, как Авлоний, Хамза, Гафур Гулом, Хуршид Даврон, Халима Худойбердиева и Абдулла



Орипов. В статье рассматриваются жанры художественного слова, национальные ценности, экологическое воспитание, диалог, интерактивные формы, соответствующие детской психике, как современные направления детской поэзии.

Ключевые слова: Интерактивный жанр, период джадидизма национальные ценности, воспитание подрастающего поколения, мотивация, глобализация, образность, художественное выражение, эстетический опыт.

THE PROCESS AND FACTORS OF RENEWAL OF UZBEKISTAN CHILDREN'S POETRY

Abstract: This article analyzes the historical stages of development of Uzbek children's poetry, the process of its substantive and artistic renewal, and the factors that influenced this process. The changes that children's poetry has undergone from the Jadid period to the years of independence are consistently highlighted, and substantive innovations are revealed through examples from the work of such poets as Avloniy, Hamza, Gafur Gulom, Khurshid Davron, Halima Khudoyberdiyeva and Abdulla Oripov. The article evaluates genres of artistic expression, national values, ecological education, dialogue, and interactive forms that are suitable for the psyche of children as modern directions of children's poetry.

Keywords: Interactive genre, jadidism period, national values, education of the younger generation, motivation, globalization, imagery, artistic expression, aesthetic experience.

O'zbek bolalar she'riyati milliy adabiyotimizning muhim va nozik yo'nalishlaridan biridir. Bu adabiyot bolalar dunyosiga mos, ularning ruhiyati va tasavvuriga yaqin bo'lgan badiiy obrazlar, tarbiyaviy g'oyalar hamda milliy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Bolalar uchun yozilgan asarlar ularning dunyoqarashi, ma'naviy olami va axloqiy qarashlarini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Shu jihatdan qaraganda, bolalar she'riyatining yangilanish jarayoni faqat adabiy hodisa emas, balki ijtimoiy-ma'naviy o'zgarishlar natijasidir.

XX asr boshlaridan boshlab o'zbek bolalar she'riyati yangi davrga qadam qo'ydi. Jadidchilik harakati orqali o'quvchi va yoshlarni taraqqiyparvar g'oyalar asosida tarbiyalashga e'tibor kuchaydi. Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi




mualliflar bolalar uchun tarbiyaviy she'rlar yozib, ezgulik, ilmga undov, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi g'oyalarni ilgari surdilar. Bu davrdagi she'riyatning yangidan paydo bo'layotgan o'zgarishlari millatning uyg'onish jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'ldi. Bu davrga misol qilib Abdulla Avloniy – “Bolalar adabiyoti otasi” Abdulla Avloniyning “Ilm” mavzusi kitobida: Imsiz odam hayvonga o'xshaydir, Kim ilm izlar — baxt topgaydir.” deya bolani ilmga undashini ko'rsatadi. va Avloniy bolalar uchun tarbiyaviy she'rlar yozdi. Yoki uning “Turkiston” she'rida bolalarni Vatanni sevishga, ilm olishga chaqiradi. Mazmuni – bolaga “Vatan uchun kerak bo'lasan, ilm ol, mehnat qil” degan g'oya beriladi.(1)

Sovet davri boshlanishi bilan bolalar adabiyotiga davlat mafkurasi singib ketdi. Shu davrda G'afur G'ulom, Zafar Diyor, Mirtemir va boshqa shoirlar bolalar uchun she'rlar yaratib, hayotiy mavzular, mehnat va jamoaviylik ruhini targ'ib etdilar. Biroq mazmunda mafkuraviylik yetakchi bo'lgani sababli ijodiy erkinlik cheklangan edi. Shunga qaramay, bolalar she'riyatida tasvir, ohang, badiiy tahlil va vazn jihatidan o'ziga xos yuksalish ko'zga tashlandi. Ayniqsa, tabiat obrazlari, xalqona humor, soddalik she'riyatning badiiyligini oshirdi. Misol qilib G'afur G'ulom – “Sen yetim emassan” kitobida “Yolg'iz emassan sen — onajon bor, Vatan bor” degan satrlar orqali bolaga umid, mehr va ijtimoiy birdamlik ruhini beradi. Yoki hazil va quvnoqlik beruvchi “Mening mushugim — gapirgich, Lekin gapini hech kim tushunmas.” so'zlari orqali bolaga kulgu va fantaziya orqali dunyoni o'rganish beriladi.(5)

O'zbek bolalar she'riyati o'z taraqqiyot bosqichiga ega bo'lsa-da, uning mazmuni va badiiy shakllarida dunyo bolalar adabiyoti tajribasining izlari seziladi. Mustaqillik yillaridan boshlab pedagogik yondashuvlarning yangilanishi, globallashuv va ta'lim tizimidagi islohotlar bolalar she'riyati mazmunini zamonaviylashtirdi. Bunday jarayonda chet el tajribasi alohida metodik va estetik ahamiyat kasb etdi.

Bunga misol qilib Rossiya bolalar she'riyati maktabi o'yinbop ritm, hazil va hayvonlarni qahramon sifatida kiritish bilan mashhur. Marshak, Chukovskiy va Barto kabi shoirlar bola tili va psixologiyasiga mos she'riy ifodalar yaratgan. Bu yondashuv o'zbek bolalar adabiyotida Zafar Diyor va G'afur G'ulom ijodida davom etdi. Yoki Turkiya bolalar adabiyotida bayroq, Vatan, tarixiy shaxslar obrazlari keng qo'llanadi. Milliy identitetni mustahkamlash ustuvor yo'nalishdir. Shuningdek, ekologik tarbiya va diniy mazmunlar ham muhim o'rin tutadi. O'zbekiston bolalar she'riyatida mustaqillikdan






soʻng milliylik va vatanparvarlik mavzularining kuchayishi aynan shu taʼsir bilan bogʻliq.(2)

Oʻzbek bolalar sheʼriyati mustaqillik yillarida tub yangilanish bosqichiga kirdi. Bu davr bolalarning individual dunyoqarashini hurmat qilish, ularning his-tuygʻularini tinglash, fantaziya va ijodkorlikni qoʻllab-quvvatlash gʻoyalari kuchaygan davr boʻldi. Shoirlar pedagogik yondashuvlardan ilhomlanib, kichkintoylarning dunyosini badiiy aks ettirishga eʼtibor qaratdilar. Jumladan, Xurshid Davron, Halima Xudoyberdiyeva, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Xosiyat Rustamova kabi ijodkorlarning sheʼrlari oʻzbek bolalar sheʼriyatini mazmunan va shaklan boyitdi. Sheʼrlarda oila qadri, milliy anʼanalar, ekologik tarbiya, insonparvarlik, tinchlik va doʻstlik kabi mavzular keng yoritila boshlandi.

Yangilanish jarayonining asosiy omillari orasida avvalo ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni koʻrsatish lozim. Mustaqillik milliy qadriyatlar, til va madaniyatni tiklashga keng yoʻl ochdi. Bolalar uchun yozilgan sheʼrlar endi sof oʻzbekona ruhda, yosh avlodni milliy oʻzlikka sodiq boʻlishga undovchi mazmun bilan boyidi. Ikkinchi omil sifatida taʼlim tizimidagi islohotlarni aytish mumkin. Darslik va bolalar adabiyotiga boʻlgan eʼtibor oshgani sayin, shoirlarga ijodiy buyurtma kuchaydi va yangi mavzular talabi paydo boʻldi.

Yana bir muhim omil – bolalar psixologiyasining chuqur oʻrganilishi va pedagogikaning rivojlanishi bilan bogʻliq. Psixologik yondashuvlar shoirlardan bolalar tiliga mos, sodda, obrazli, oʻqilganda tasavvur uygʻotuvchi ifoda talab qiladi. Sheʼriyatdagi personajlar – sichqon, quyon, qush, gul, shamol, quyosh kabi obrazlar faqat tasvir boʻlish bilangina cheklanmay, bola uchun doʻst sifatida gavdalanadi. Bola psixologiyasi asosida yozilgan sheʼr misoli Halima Xudoyberdiyevaning bolalar uchun sheʼrlarida mehr, erkalash bor: “Bolam, sening quvonching — bogʻlarim bahori” Mazmuni – bola ruhiyatiga mos ifoda, mehr va sevgi orqali tarbiya. Halima Xudoyberdiyevaning yana ona mehrining timsoli “Bolamning kulgusi — bogʻimning shabadası.” Bu misol bolalar sheʼriyatining mehr, sevgi asosida yozilganini koʻrsatadi. (4)

Globalashuv davri ham bolalar sheʼriyatining yangilanishiga taʼsir qildi. Axborot oqimi kengaygani sari bolalar dunyo bilan tezroq bogʻlanadigan boʻldi. Shu sababli, sheʼrlarda yangi texnologiyalar, tabiatdagi muammolar, ilm-fanga qiziqish, umuminsoniy





qadriyatlar aks etmoqda. Bugungi bolalar she'riyati interaktiv shaklga ega bo'lib, qo'shiq, ertakona she'r, topishmoq, dialogli she'rlar kabi janrlar orqali bolalarning faolligi rag'batlantirilmoqda. Zamonaviy nashrlar orasida "Cho'qqi", "Yangi asr avlodi", "Kitob olami" kabi loyihalar bolalar uchun rangli, oson tushunarli. O'zbek adabiyotida ham so'nggi yillarda zamonaviy mavzularga bag'ishlangan ko'plab roman va hikoyalar yaratilmoqda. Yoshlar ongini boyitishda, dunyoqarashini kengaytirishda, to'g'ri fikrlashni o'rgatishda zamonaviy kitoblar juda muhimdir. Ular insonning ichki dunyosini boyitadi, o'zini anglashga yordam beradi va hayotiy saboqlar beradi. Bular bolalar kitobxonligining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, didaktik va tarbiyaviy mazmundagi she'riy alifbolar, mavzuli ertak to'plamlari, bilimli komikslar, interaktiv hikoyalar ham yosh kitobsevchilarning e'tiborini tortmoqda. (3)


Adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, kitob o'quvchi bolaning qalb dunyosini uyg'otadi, o'ylashga o'rgatadi, estetik didini shakllantiradi. O'qigan bola axloqiy tanlovlar qilishni, muammolarni hal etishni, insonlar bilan munosabat qurishni o'rganadi. Badiiy asarlarda berilgan o'gitlar, ijobiy obrazlar, qahramonlar taqdiri bolaga hayotiy yo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

She'riyatning yangilanishida estetik tajriba ham ahamiyatli omildir. Rasm chizish, musiqaga solish, teatr ko'rinishida ijro etish kabi ko'p qirrali yondashuvlar bolalar she'riyatini yanada tirik va qiziqarli qildi. Bu jarayon bolalarda tasavvur, muloqot, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi O'zbekiston bolalar she'riyati rivojida badiiy shakl, pedagogik yondashuv va mazmuniy g'oya jihatidan muhim turtki bo'ldi. Natijada zamonaviy o'zbek bolalar she'riyati:

- global mavzular uchun ochiq,
- milliy qadriyatlar bilan uyg'un,
- bola psixologiyasiga mos,
- motivatsion va interaktiv xususiyatga ega bo'lib bormoqda.

Bu esa bolalar adabiyotining tarbiyaviy qiymatini oshirib, uni yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishda kuchli vosita sifatida namoyon qilmoqda.

O'zbek bolalar she'riyati jadidchilikdan tortib mustaqillikka qadar mazmun, forma va tarbiyaviy maqsad jihatidan yangilanib bordi. Avloniyda ilm va tarbiya, G'afur G'ulomda jamiyat, mustaqillik shoirlarida milliy ruh, bugungi adiblar ijodida esa ekologiya, fantaziya va bola psixologiyasiga mos yondashuv kuchaydi.



Xulosa qilib aytganda, o‘zbek bolalar she‘riyatining yangilanish jarayoni ko‘p qirrali va bosqichma-bosqich kechmoqda. Jadid davridan boshlab bugungi kunga qadar bolalar she‘riyati ichki mazmun, badiiy ifodalar, tarbiyaviy vazifa va estetik yondashuvlar jihatidan sezilarli darajada rivojlandi. Mustaqillik davri esa bu jarayonga kuchli turtki berib, she‘riyatni milliy ruh, umuminsoniy qadriyatlar va kreativ yondashuv bilan boyitdi. Shu bois, o‘zbek bolalar she‘riyati nafaqat adabiy janr sifatida, balki kelajak avlodni ma‘naviy yetuk qilib tarbiyalash vositasi sifatida ham o‘z ahamiyatini tobora oshirib bormoqda. Shuningdek, mustaqillik va ta‘lim islohotlari, pedagogik yondashuvlar va globallashtirish omillari bolalar she‘riyati rivojiga muhim turtki bergani ilmiy asoslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ochildiyev B. “Raqamli davrda bolalar she‘riyati va interaktivlik”. – Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali, №2, 2024.47 b.
2. Karimova D. O‘zbek bolalar adabiyoti: yangi mavzular va poetik yechimlar. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2024.263 b
3. Abdullayeva, D. Boshlang‘ich sinflarda dars o‘tish metodikasini takomillashtirish yo‘llari. – Toshkent: TDPU ilmiy to‘plami, 2023. 135-b
4. Xudoyberdiyeva H. Bolalar uchun she‘rlar. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2003.
5. G‘afur G‘ulom. She‘rlar va bolalar adabiyoti namunalari to‘plami. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1987. 79 b.

